

O‘ZBEKISTONDA JURNALISTIKA TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TASHKIOTLAR FAOLIYATINING TARIXI (1991–2026)

Abdusamadova Sarvinoz Anvar qizi,
Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +998900290518 Email: sarvinozabdusamadova6@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21934538>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda jurnalistika ta’limini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar faoliyatining 1991–2026 yillar oralig‘idagi tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ushbu jarayonni davrlashtirish va har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Muallif tasdiqlangan tarixiy manbalar asosida besh bosqichli davrlashtirishni taklif etadi: faol xalqaro hamkorlik davri (1991–2004), cheklovlar davri (2004–2006), bosqichma-bosqich institutsional hamkorlik davri (2007–2016), faol integratsiya davri (2017–2022) va chuqur institutsional hamkorlik davri (2023–2026). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston jurnalistika ta’limi rivojiga ta’siri chiziqli emas, balki davlat siyosati va xalqaro munosabatlar konteksti bilan bog‘liq holda notekis kechgan murakkab jarayon bo‘lgan. Maqola natijalari O‘zbekiston-xalqaro tashkilotlar hamkorligi tarixini o‘rganuvchi keyingi tadqiqotlar uchun ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: xalqaro tashkilotlar, jurnalistika ta’limi, YUNESKO, YEXHT, texnik yordam, davrlashtirish, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье проанализирована история деятельности международных организаций в развитии журналистского образования в Узбекистане в период с 1991 по 2026 год. Цель исследования заключается в периодизации данного процесса и раскрытии особенностей каждого этапа. На основе достоверных исторических источников автор предлагает пятиэтапную периодизацию: этап активного международного сотрудничества (1991–2004 гг.), этап ограничений (2004–2006 гг.), этап постепенного институционального сотрудничества (2007–2016 гг.), этап активной интеграции (2017–2022 гг.) и этап углублённого институционального сотрудничества (2023–2026 гг.). Согласно результатам исследования, влияние международных организаций на развитие журналистского образования в Узбекистане носило нелинейный характер и было тесно связано с государственной политикой и контекстом международных отношений. Результаты статьи имеют значение для дальнейших исследований истории сотрудничества Узбекистана с международными организациями.

Ключевые слова: международные организации, журналистское образование, ЮНЕСКО, ОБСЕ, техническое содействие, периодизация, Узбекистан.

Abstract. This article analyzes the history of international organizations’ activities in developing journalism education in Uzbekistan between 1991 and 2026. The aim of the study is to periodize this process and reveal the characteristics of each stage. Based on verified historical sources, the author proposes a five-stage periodization: the active international cooperation stage (1991–2004), the restriction stage (2004–2006), the gradual institutional cooperation stage (2007–2016), the active integration stage (2017–2022), and the deep institutional cooperation stage (2023–2026). The findings show that the influence of international organizations on the development of journalism education in Uzbekistan was non-linear and closely tied to state policy and the context of international relations. The results are relevant for further research into the history of Uzbekistan’s cooperation with international organizations.

Key words: international organizations, journalism education, UNESCO, OSCE, technical assistance, periodization, Uzbekistan.

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni kengaytirish, jumladan jurnalistika ta’limi va media sohasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning tajribasidan foydalanish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu hamkorlik jarayoni 35 yildan ortiq davr mobaynida turli bosqichlarni bosib o‘tdi – faol hamkorlikdan tortib, cheklovlar davrigacha va yana chuqur institutsional integratsiyagacha.

Ushbu jarayonni tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish O‘zbekiston tashqi siyosati va ta’lim tizimi tarixi uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki u davlatning xalqaro munosabatlaridagi umumiy tendensiyalarni media va ta’lim sohasi misolida aniq ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot ob’ekti – 1991–2026 yillarda O‘zbekistonda jurnalistika ta’limini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashkilotlar faoliyati. Tadqiqot predmeti – ushbu faoliyatning tarixiy dinamikasi, uning bosqichlari va har bir bosqichni belgilovchi omillar.

Tadqiqotning maqsadi – xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston jurnalistika ta’limi rivojiga qo‘shgan hissasi tarixini davrlashtirish hamda har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Vazifalar: xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi asosiy voqealarni xronologik tartibga solish; jarayonni bosqichlarga ajratish; har bir bosqichning siyosiy-institutsional kontekstini aniqlash; zamonaviy hamkorlik shakllarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI. Sh.B. Uzakova jurnalistika ta’limi shakllanishida OAVning o‘rnini tahlil qilar ekan, xalqaro dasturlarning milliy ta’lim standartlariga ta’sirini alohida ko‘rsatib o‘tadi [7]. YUNESKOning rasmiy hisobot va loyiha materiallari Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan O‘zbekistonda, jurnalistika ta’limini rivojlantirish bo‘yicha tashkilotning strategik yondashuvini aks ettiradi [3; 4; 5]. Committee to Protect Journalists (CPJ), Reporters Without Borders (RSF) va OMCT/FIDH kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari 2004–2005 yillarda O‘zbekistonda xorijiy media-tashkilotlar faoliyatiga nisbatan qo‘llanilgan cheklov choralari haqida batafsil ma’lumot beradi [2; 8; 9]. Institute for War and Peace Reporting (IWPR) va Eurasianet tahliliy materiallari ushbu davrdagi voqealarning kengroq siyosiy kontekstini, jumladan xalqaro tashkilotlar va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni yoritadi [10; 6]. O‘zbekiston-OBSE hamkorligiga oid tahliliy material esa 2007 yildan boshlab OBSE Loyihalar muvofiqlashtiruvchisi ofisi orqali amalga oshirilgan institutsional hamkorlikning miqdoriy ko‘rsatkichlarini keltiradi [1].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston jurnalistika ta’limi rivojiga qo‘shgan hissasi yaxlit tarixiy davrlashtirish nuqtai nazaridan, ayniqsa 1991–2016 yillar davri bo‘yicha, tizimli tahlil qilinmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda tarixiy-xronologik, qiyosiy-tahliliy hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Manba sifatida xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, xalqaro jurnalistik tashkilotlarning monitoring materiallari, sud qarorlariga oid ochiq ma’lumotlar, shuningdek YUNESKO va OBSEning loyiha hujjatlari jalb qilindi. Davrlashtirish mezonini sifatida xalqaro tashkilotlar faoliyatining institutsional maqomi va hajmidagi tub o‘zgarishlar asos qilib olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. I. Faol xalqaro hamkorlik davri (1991–2004 yy.)

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik o‘rnatdi. 1992 yilda mamlakat Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (OBSE) a’zo bo‘ldi, bu esa keyinchalik media va jurnalistika sohasidagi hamkorlikning institutsional asosini yaratdi.

Ushbu davrda AQSh Xalqaro Rivojlanish Agentligi (USAID) tomonidan moliyalashtirilgan "Internews" tarmoq tashkilotining O‘zbekiston vakolatxonasi mamlakatda o‘n yildan ortiq faoliyat yuritdi. Tashkilot televidenie va radio jurnalistlarini o‘qitish, jurnalistlarga huquqiy maslahat berish hamda media islohotlarini targ‘ib qilish bilan shug‘ullandi [2]. Bundan tashqari, Ochiq jamiyat instituti (Soros jamg‘armasi) ham media ta’limi sohasida faoliyat yuritgan tashkilotlardan biri edi.

II. Cheklovlar davri (2004–2006 yy.)

Ikkinchi bosqich xalqaro media-tashkilotlar faoliyatiga nisbatan qo‘llanilgan cheklov choralari bilan tavsiflanadi. 2004 yil aprelida Ochiq jamiyat instituti O‘zbekistondagi ofisini yopdi [6]. 2004 yil avgustida "Internews-Uzbekistan"ning bank hisoblari muzlatildi, sentyabr oyida esa Toshkent sudi tashkilot faoliyatini olti oyga to‘xtatdi – rasmiy sabab sifatida logotipni ro‘yxatdan o‘tkazmaslik va manzil o‘zgarishi haqida xabar bermaslik kabi qonun buzilishlari ko‘rsatildi [2; 6].

2005 yil 9 sentyabrda Toshkent sudi "Internews-Uzbekistan" faoliyatini butunlay to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qildi, 11 oktyabrda esa apellyatsiya sudi ushbu qarorni kuchda qoldirdi [8; 9]. Xalqaro jurnalistik tashkilotlar, jumladan "Chegarasiz reportyorlar" (RSF), ushbu qarorni o‘sha yilning may oyida Andijonda yuz bergan voqealardan keyingi umumiy siyosiy vaziyat konteksti bilan bog‘liq deb baholadi [8], davlat organlari esa buni tashkilotning amaldagi qonunchilikni buzganligi bilan izohladi [6]. Ushbu bosqich O‘zbekistonda xorijiy media-tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlari sezilarli darajada torayganini ko‘rsatadi.

III. Bosqichma-bosqich institutsional hamkorlik davri (2007–2016 yy.)

Uchinchi bosqichda xalqaro hamkorlik shakli tubdan o‘zgardi – mustaqil NNTlar faoliyati o‘rniga davlat organlari bilan institutsional loyihaviy hamkorlik ustuvor yo‘nalishga aylandi. O‘zbekiston hukumati va OBSE o‘rtasida OBSE Loyihalar muvofiqlashtiruvchisi lavozimini ta’sis etish to‘g‘risida memorandum imzolandi, bu OBSE faoliyatini O‘zbekiston tomoni uchun ustuvor loyihalarni amalga oshirishga

yo'naltirish imkonini berdi [1]. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2007 yilda vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda OBSEning barcha uch o'ldhovi bo'yicha 18 ta loyiha, 2008 yilda – 15 ta, 2009 yilda – 14 ta, 2010–2011 yillarda – 12 tadan, 2012–2013 yillarda – 11 tadan loyiha amalga oshirildi [1]. Ushbu davrda hamkorlik ko'lam i avvalgi davrga nisbatan torroq, biroq barqarorroq va institutsional jihatdan tartibga solingan xarakterga ega bo'ldi.

IV. Faol integratsiya davri (2017–2022 yy.)

To'rtinchi bosqich 2016 yildan keyin boshlangan davlat siyosatidagi erkinlashuv jarayoni bilan bog'liq holda xalqaro hamkorlikning sezilarli faollashuvi bilan tavsiflanadi. Bu davrda YUNESKO va OBSE tomonidan raqamli vositalar, media-huquq va jurnalistika xavfsizligi bo'yicha maxsus kurslar tashkil etildi, ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kengaydi [4]. Xalqaro tashkilotlarning faoliyati endilikda nafaqat davlat organlari, balki oliy ta'lim muassasalari va nodavlat media-tashkilotlari bilan ham amalga oshirila boshlandi.

V. Chuqur institutsional hamkorlik va standartlashtirish davri (2023–2026 yy.)

Beshinchi, so'nggi bosqich xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning yanada chuqurlashuvi va institutsionalizatsiya qilinishi bilan tavsiflanadi. 2023–2026 yillarda amalga oshirilgan AIM (Access to Information and Media Development) dasturi doirasida YUNESKO ishtirokida media savodxonligini rivojlantirish, davlat institutlari faoliyatining ochiqqligini oshirish va jurnalistika sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan axborotga kirish huquqi to'g'risidagi qonunchilik bo'yicha onlayn-kurs (MOOC) ishga tushirildi [3].

2025 yil iyun oyida YUNESKO O'zbekistonga jurnalistika ta'limi bo'yicha Milliy malaka standartini qayta ko'rib chiqish va yangilashda ko'maklashdi [5] – bu xalqaro tashkilot va milliy ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlikning institutsional chuqurligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir. Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Yevropa Ittifoqi qo'llab-quvvatlashi ostida jurnalistlar va bloggerlar uchun raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etildi.

Xalqaro tashkilotlar faoliyatining davrlashtirilishi (1991–2026), jadval

Bosqich	Yillar	Asosiy voqealar	Manba
Faol hamkorlik	1991–2004	OBSEga a'zolik (1992); Internews va OSI faoliyati	[2; 6]
Cheklovlar	2004–2006	OSI yopilishi, Internews-Uzbekistan sud orqali yopilishi	[6; 8; 9]
Institutsional hamkorlik	2007–2016	OBSE Loyihalar muvofiqlashtiruvchisi – yiliga 11–18 loyiha	[1]
Faol integratsiya	2017–2022	YUNESKO/OBSE raqamli kurslari kengayishi	[4]
Chuqur institutsional hamkorlik	2023–2026	AIM dasturi, Milliy malaka standarti yangilanishi	[3; 5]

XULOSA. O'tkazilgan tarixiy tahlil O'zbekistonda jurnalistika ta'limini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar faoliyatining 1991–2026 yillar mobaynida besh aniq bosqichni bosib o'tganligini ko'rsatdi: faol hamkorlik (1991–2004), cheklovlar (2004–2006), bosqichma-bosqich institutsional hamkorlik (2007–2016), faol integratsiya (2017–2022) va chuqur institutsional hamkorlik (2023–2026) bosqichlari.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlarning ta'siri chiziqli rivojlanish emas, balki davlat siyosati va xalqaro munosabatlar konteksti bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab, ba'zan qarama-qarshi jarayondir. Agar dastlabki bosqichda hamkorlik asosan mustaqil nodavlat tashkilotlari orqali amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda u davlat institutlari va rasmiy ta'lim tizimi bilan institutsionalizatsiya qilingan shaklga o'tdi.

So'nggi, beshinchi bosqichda kuzatilayotgan chuqur institutsional hamkorlik – xususan milliy ta'lim standartlarining xalqaro tashkilotlar ishtirokida yangilanishi – O'zbekiston jurnalistika ta'limi tizimining xalqaro andozalarga integratsiyalashuv jarayoni izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston tashqi siyosati va ta'lim tizimi tarixini, xususan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tarixini o'rganuvchi keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сотрудничество Узбекистана и Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ) // <https://www.uzbekistan.org.ua/ru/152-vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-mezhdunarodnye->

organizatsii/1718-sotrudnichestvo-uzbekistana-i-organizatsii-po-bezopasnosti-i-sotrudnichestvu-v-evrope-obse.html, 12.08.2026.

2. Authorities launch criminal inquiry of Internews // CPJ. <https://cpj.org/2005/04/authorities-launch-criminal-inquiry-of-internews/>, 12.08.2026.

3. UNESCO. AIM Program: Enhancing access to information, media freedom and digital literacy in Uzbekistan. 2023–2026.

4. UNESCO. Журналистское образование в Центральной Азии // unesco.org, 2023.

5. UNESCO supports Uzbekistan in reviewing and updating the National Qualification Standard for Journalism Education // unesco.org, June 2025.

6. Uzbek Authorities Crack Down on Another Foreign NGO in Tashkent // Eurasianet. <https://eurasianet.org/uzbek-authorities-crack-down-on-another-foreign-ngo-in-tashkent>, 12.08.2026.

7. Uzakova Sh.B. The role of the media in shaping journalism education in Uzbekistan // East European Scientific Journal. 2024.

8. Uzbek authorities shut down international organization Internews // RSF. <https://rsf.org/en/uzbek-authorities-shut-down-international-organization-internews>, 12.08.2026.

9. Uzbekistan: Closure of the Uzbek branch of Internews Network // OMCT. <https://www.omct.org/en/resources/urgent-interventions/uzbekistan-closure-of-the-uzbek-branch-of-internews-network>, 12.08.2026.

10. Uzbekistan: Internews "Victim of Media Purge" // IWPR. <https://iwpr.net/global-voices/uzbekistan-internews-victim-media-purge>, 12.08.2026.